

## RASMIY NUTQDA PRESUPPOZITSIYANING IFODALANISHI

**Z.I.Rasulov,**

*f.f.n,dotsent, Buxoro Davlat Universiteti*

**N.S.Ibragimova,**

*magistrant, Buxoro Davlat Universiteti,  
n.s.ibragimova@buxdu.uz*

**Аннотация.** В данной статье речь идет о presupпозиции, способах выражения presupпозиции в текстах официально-делового стиля. А также, в этой работе уделено внимание на роли синтаксических структур в выражение presupпозиции в контекстах вышеуказанного вида.

**Ключевые слова:** presupпозиция, значение, внутренний смысл, смысл, речевое пространство, экономия речи, синтаксическая структура, адресат адресант

**Abstract.** The article demonstrate some views on the presupposition and the ways of expressing presupposition in the contexts of formal style. Furthermore, in this piece of scientific work, attention was focused on the importance of syntactic structures in expressing presupposition in a formal speech.

**Key words:** meaning, inner meaning, pragmatical meaning, speech space, syntactic structure, addressee, addresser.

Presuppozitsiya hodisasining o'ziga to'xtaladigan bo'lsak, ushbu hodisa haqidagi qarashlar dastlab, nemis mantiqshunosi G. Frege tomonidan ilgari surilgan. Uning ta'kidlashcha, presuppozitsiya hukmning mantiqiy asosi hisoblanadi<sup>1</sup>. U fikrini isbotlash uchun "Kepler bechoralikdan olamdan o'tdi" gapini misol ketiradi va bu erda presuppozitsiya sifatida Kepler degan odamning yashaganligini nazarda tutadi. G.Frege mavjudlik bildiruvchi ikkinchi hukmni presuppozitsiya deb ataydi.

Presuppozitsiya termini tilshunoslikka P. Strosen nomi bilan bog'liq bo'lib uning qarashlari ham Fregening qarashlariga juda yaqin turadi. Demak, presuppozitsiya jumladan anglashilgan ikkilamchi axborot deb qarash mumkin. Shu kunga qadar tilshunoslikda bu hodisaga nisbatan presuppozitsiya, *tag bilim, ichki ma'no, pragmatik ma'no, sigmatik ma'no* terminlari qo'llanilgan.

Til tizimida kechadigan o'zgarishlarni faqat kuch yoki energiyani tejash maqsadi bilan bog'lash g'oyasi o'z paytida tilshunoslar o'rtasida keng tarqalgan edi. Biroq keyingi kuzatishlar guvohlik berishicha, ushbu hodisa o'zgarishlar yuzaga kelishining yagona sababi bo'lmasdan, balki turli holat, kuchlarning o'zaro uchrashuvi til tizimi rivoji yo'nalishlarini belgilab beradi<sup>2</sup>

Tilshunos olimlarning fikriga ko'ra, "presuppozitsiya" hodisasi muloqot qatnashchilarining nutqiy tejamlilikka ehtiyoji, til birliklarining nutqiy vaziyatda sintaktik strukturaga qo'shimcha ikkilamchi ma'lumot berish imkoniyatiga egaligi, suhbat qatnashchilarining bo'lib o'tgan yoki bo'lajak jarayon haqidagi oldindan ma'lum bilimlari kabi omillar ta'sirida nutqiy maydonda namoyon bo'ladi.

<sup>1</sup> А.Нурмонов Танланган асарлар. I жилд. – Тошкент: "Akademnashr", 2012. – 404-бет.

<sup>2</sup> Rasulov Z. I. So'zlashuv nutqi lisoniy o'zgarishlarning manbai sifatida // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2022. — №.4 (45). — B .20-29. <https://doi.org/10.36078/1664529656>

# INTEGRATION OF PRAGMALINGUISTICS, FUNCTIONAL TRANSLATION STUDIES AND LANGUAGE TEACHING PROCESSES

Presuppozitsiya hodisasi hukmning ikkilamchi ma'noga, axborotga, ayrim hollarda ikkilamchi humkga ishorasi natijasida yuzaga keladi. Bu jarayonda til birliklarining presuppozitsiya hodisasini yuzaga keltirishdagi roli muhim hisoblanadi. Ayrim o'rinlarda nutq vaziyatida so'z semantikasidagi ma'no bo'yoqdorligi presuppozitsiyani yuzaga keltiradi:

*Ular bir necha vaqt suhbatlashishganlaridan keyin bir-birlarini tanib qolishdi.*

Yuqoridagi misolda "tanib qolmoq" so'zining ma'nosi nutq vaziyatidan kelib chiqqan holda ikkilamchi ma'noga ishora qilib o'tgan. Ya'ni, bu misoldan nutq adresatlari oldin ham bir-birlari bilan ko'rishishgan yoki tanish bo'lishgan degan ikkilamchi xulosa kelib chiqadi. Ayrim o'rinlarda gap sturkturasidagi o'zgarishlar bevosita ikkilamchi ma'noga (presuppozitsiyaga) ishora qilishi mumkin.

Demak, yuqoridagi misollar va nazariy baxslar shuni ko'rsatib turibdiki, presuppozitsiya hodisasi nutqiy jarayonda turli vositalar va birliklar orqali ifodalanishi mumkin. Rasmiy nutqning pragmasemantik xususiyatlaridan biri, unda bir necha vositalar, ya'ni rasmiy nutqqagina xos bo'lgan vositalar presuppozitsiya hodisasiga ishora qilib o'tadi.

Presuppozitsiya hodisasi nutqiy jarayon ishtirokchilariga sintaktik strukturani ixchamlashtirish, til birliklarini nutqiy vaziyatda tejash imkonini beruvchi, nutq egalariga muomala jarayonida tilning ichki imkoniyatlarini boshqa til egalariga ko'rsatib berishda yordamga keluvchi hodisadir. Rasmiy nutqda bu jarayonga juda ko'p o'rinlarda guvoh bo'lishimiz mumkin.

Rasmiy nutqda keng qo'llaniluvchi nutqiy odat tusiga kirgan buyruq ohangiga ega gaplar tahliliga e'tirbor bersak, uslubning talabi nuqtai nazaridan ikkilamchi axborotning ifodalanishiga guvoh bo'lamiz:

*Bu yerda chekish mumkin emas!*

Yuqoridagi jumladan ifodalanyotgan asosiy propozitsiya chekish mumkin emasligi. Endi gap strukturasi va uslub talabi jihatidan yondoshsak, "Bu yer chekilmaydigan joy" degan ikkilamchi axborotni anglashimiz mumkin.

*".....Valyutalar qiymatini belgilash chog'ida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki mazkur valyutalarni ushbu qiymatda sotish yoki sotib olish majburiyatini olmagan.*

Keltirib o'tilgan misolda anglashiladigan presuppozitsiya quyidagicha izohlanishi mumkin:1) O'zbekiston Respublikasi hududida valyutalar qiymatini O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki belgilaydi 2) O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki istalgan paytda valyutalarni belgilangan qiymatda sotish yoki sotib olishga majbur emas.3) Valyutalar oldi -sotdisi amaliyotlari bankning valyuta fondi imkoniyatlatidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

*"O'zbekiston so'mini soxtalashtirish qonunga muvofiq ta'qib qilinadi"*

Yuqoridagi gapni tahlilga tortaylik: 1)gap orqali ifodalanyotgan asosiy propozitsiya davlatning valyutasini soxtalashtirgan insonlarning taqib qilinishidir; 2) yuqoridagi misolni pragmatik jihatdan tahlil qilsak, turli ikkilamchi axborotlarning ifodalanyotganini va ushbu axborotlar turli til birliklari tomonidan yuzaga keltirilayotganiga guvoh bo'lamiz. a) ushbu jumlada qo'llangan "so'm" leksemasi "O'zbekistonning valyutasi, ya'ni pul birligi "so'm" degan ikkilamchi axborotni ifodalamoqda; b) "qonunga muvofiq" birikmasi esa O'zbekistonning qonuniy davlat ekanligi haqida ikkilamchi axborotni yuzaga keltirmoqda. Chunki ushbu ibora shariatga muvofiq emas, qonunga muvofiq, yoki ixtiyoriy emas, aniq qonunlarga muvofiq degan o'zgarmas hukmni yuzaga keltirgan. d) "soxtalashtirish" leksemasi taqib qilinishga asos bo'lish sababchi bo'lish degan ikkilamchi hukmni ifodalab kelmoqda. Ya'ni, soxtalashtirmasang taqib qilinmaysan. Shu erda soxtalashtirmang hukmning ham ifodalanyotganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. e) kesim tarkibida ma'lum shaxs-son shakllarining qo'llanmayotgani e'tibor beraylik. Bunda so'zlovchi tinglovchining shaxsidan qat'iy nazar taqib qilinishi haqida ogohlantirmoqda.

# INTEGRATION OF PRAGMALINGUISTICS, FUNCTIONAL TRANSLATION STUDIES AND LANGUAGE TEACHING PROCESSES

Xulosa o'rnida shularni aytib o'tish joizki, har bir nutq uslubi ma'lum til vositalari, ma'lum sintaktik sturukturalarning yig'indisi o'laroq yuzaga kelar ekan, bu sturukturalarni tanlash so'zlovchining ixtiyoridadir. Bu barcha uslub birliklari o'zida so'zlovchining yashirin xohish va istaklariga bo'ysundirilishidan darak beradi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. 1.А.Нурмонов Танланган асарлар. I жилд. – Тошкент: “Akademnashr”, 2012. – 404-бет.
2. 2.Rasulov Z. I. So'zlashuv nutqi lisoniy o'zgarishlarning manbai sifatida // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2022. — №.4 (45). — В .20-29. [https://doi.org/ 10.36078/1664529656](https://doi.org/10.36078/1664529656)
3. 3.Ҳақимов М. Тағмаъно ва тағбилим хусусида баъзи мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент. - 2001. - №1. - Б. 33. 3. Раҳимов У. Лисоний пресуппозиция / Айюб Ғулом ва ўзбек тилшунослиги: Илмий мақолалар тўп. - Тошкент. 2004. - Б.58.
4. Раҳимов У. Тағмаъно ва пресуппозиция // Ўзбек тил ва адабиёти. - Тошкент. 2005. - №5. - Б.32.
5. Раҳимов У. Ўзбек тилида юкламалар пресуппозицияси: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. - Самарқанд, 1994. - Б. 11-14.
6. 6.Маҳкамов Н. Лисоний ортикчалик ва тежамлилик натижасида вужудга келган десемантизация // Ўзбек тили ва адабиёти. –
7. Хаёрulloева, N. (2021). THE CHARACTERIZATION OF MARY ALICE MONROE'S FICTION. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 8(8).  
[http://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/4113/2602](http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/4113/2602)
8. 8, Хаёрulloева, N. (2021). MARY ALICE MONROE: «GREEN» NOVELS AND ACHIEVEMENTS. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 8(8).  
[http://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/4114/2603](http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/4114/2603)